

Esanova Sarvinoz Uktamovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

E-mail: esanovas@mail.ru

Tel: +998 91 510 83 80

UDK 581.5 (575.19)

TALABALARNING XALQ HUNARMANDCHILIGI BO'YICHA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarining xalq hunarmandchiligi yo'nalishidagi ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish holati tahlil qilinadi. Unda an'anaviy hunarmandchilik orqali yoshlarning estetik didi, mehnat madaniyati va milliy qadriyatlarga sodiqligi shakllanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosidagi o'qitish metodikasi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: xalq hunarmandchiligi, ijtimoiy kompetensiya, talabalar, an'anaviy kasb, estetik tarbiya, loyihaviy ta'lim.

Эсанова Сарвиноз Уктамовна

Институт предпринимательства и педагогики Денова,

преподаватель кафедры дошкольного образования

Э-почта: esanovas@mail.ru

Тел: +998 91 510 83 80

СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ НАРОДНЫХ РЕМЁСЕЛ

Аннотация. В статье рассматривается состояние развития социальных компетенций студентов в области народных художественных промыслов. Подчёркивается роль традиционного ремесла в формировании эстетического вкуса, трудовой культуры и приверженности национальным ценностям у молодёжи. Также анализируется эффективность практических занятий и проектного обучения как средств развития социальных навыков.

Ключевые слова: народные промыслы, социальная компетентность, студенты, традиционные ремёсла, эстетическое воспитание, проектное обучение.

Esanova Sarvinoz Uktamovna

Denau institute of entrepreneurship and pedagogy

Teacher of the Department of Preschool Education

E-mail: esanovas@mail.ru

Phone: +998 91 510 83 80

THE STATE OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL COMPETENCIES IN THE FIELD OF FOLK CRAFTS

Abstract: This article analyzes the current state of students' social competencies in the field of traditional folk crafts. It highlights the role of handicrafts in shaping aesthetic taste, work ethics, and loyalty to national values among youth. The effectiveness of practical training and project-based learning is also discussed as a means to foster social skills.

Keywords: folk crafts, social competence, students, traditional skills, aesthetic education, project-based learning.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashga, balki talabanning ijtimoiy-madaniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ham xizmat qilishi lozim. Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning hayotga tayyor, ijtimoiy faol, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan yetuk shaxs sifatida shakllanishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xalq hunarmandchiligi orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish o'zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Xalq hunarmandchiligi – bu o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan moddiy va ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, unda milliy urf-odatlar, estetik qarashlar, mehnatga bo'lgan munosabat mujassamdir. Talabalarni ushbu soha bilan tanishtirish, ularga an'anaviy hunarmandchilik turlari (zargarlik, kulollik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi va boshqalar) haqida bilim berish

nafaqat kasbiy tayyorgarlikni oshiradi, balki ularning ijtimoiy faolligi, jamoada ishlash qobiliyati, madaniy merosga hurmat va e'tiborini ham kuchaytiradi.

Talabalarda xalq hunarmandchiligi turlarini targ'ib qilishning dolzarbligi shundaki, xalq hunarmandchiligi vositasida talabalarda nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki ijtimoiy hamjihatlikka asoslangan shaxsiy sifatlar ham rivojlanadi. Bu esa ularni hayotga yanada tayyor, faol va ongli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Xalq hunarmandchiligini keng aholi, xususan talaba-yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish masalasi bir qator hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, shuningdek tadqiqotchilarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori xalq ta'limi tizimida kasb-hunar yo'nalishlarini mustahkamlash, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni mehnat bozoriga mos tayyorlash masalalarini yoritadi [1].

Mahalliy tadqiqotchilardan biri D.A.Amanjonova tomonidan yozilgan "O'zbekistonning qo'l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari" kitobida xalq hunarmandchiligining turlari, tarixiy ildizlari va madaniy-estetik ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Muallif xalq san'ati turlari orqali yosh avlodda estetik did, milliy g'urur, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabat va kreativ tafakkurni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu kitob talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda xalq hunarmandchiligining imkoniyatlarini ochib beruvchi muhim manba hisoblanadi [2].

Xorijiy adabiyotlardan biri bo'lgan K. Dunckerning "Zur Psychologie des produktiven Denkens" asarida ijodiy tafakkur va samarali fikrlash mexanizmlari psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Hunarmandchilik jarayonining o'zi ham ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish va amaliy yechimlar topishga asoslangan faoliyat bo'lib, mazkur nazariya talabalarda ijtimoiy kompetensiyalar, xususan, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlikni rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin [4].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda xalq hunarmandchiligi boy pedagogik, psixologik va madaniy salohiyatga ega bo'lgan vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada mustahkamlab, uning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Talabalarining xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish holatini ochib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning pedagogika sohasida qo'llaniladigan analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Xalq hunarmandchiligi – qadimdan to bugungi kungacha saqlanib kelayotgan va yosh avlodning milliy o'zligini shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy-madaniy merosdir. Dastlab tosh o'ymakorligi, suyak va yog'och o'ymakorligi, so'ngra esa boshqa hunar turlari bosqichma-bosqich shakllanib borgan. Texnologiya fanining o'quv dasturlarida "Texnologiya va dizayn" hamda "Xizmat ko'rsatish" yo'nalishlari doirasida xalq hunarmandchiligi turlari uchun alohida darslar ajratilgan. Biroq ushbu mashg'ulotlar boshlanishidan avval talabalarga u yoki bu hunarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari haqida qisqacha ma'lumot berish, ularning ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlash muhimdir. Texnologiya fanidagi amaliy mashg'ulotlar xalq hunarmandchiligining shakllanish bosqichlarini anglashga xizmat qiladi [2].

Texnologiya fanini ta'lim muassasalarida o'qitishdan asosiy maqsad ham xalq hunarmandchiligi asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlar, o'zlikni anglash, mehnat madaniyati, estetik did, ijodiy yondashuv kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda talabalarda yog'och, metall, ipak va boshqa materiallar bilan ishlash asosida xalq hunarmandchiligi bo'yicha bilim va ko'nikmalar berilishi belgilangan.

Bizning ko‘p yillik tajribamiz asosida, talabalar yoshiga va kasbiy rivojlanish bosqichiga qarab, ularni milliy hunarlarning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rgatish maqsadga muvofiq:

Ishlatiladigan materialga ko‘ra: yog‘ochga ishlov berish (o‘ymakorlik, beshiksozlik, eshik-deraza yasash), metallga ishlov berish (temirchilik, misgarlik, zargarlik), to‘qimachilik (gilamdo‘zlik, kashtachilik, do‘ppido‘zlik, terichilik, charmdan buyumlar tayyorlash), shuningdek, sopolchilik, haykaltaroshlik, suyak va tosh o‘ymakorligi, milliy shirinliklar tayyorlash va boshqalar [3].

Ba‘zi mavzularni to‘garaklarda chuqurroq o‘rganish orqali talabalar yoshlarning milliy hunarmandchilik haqida yanada kengroq tasavvurga ega bo‘lishi ta‘minlanadi. Shuningdek, har bir hunar yo‘nalishi uchun ijtimoiy kompetensiyalar – ya‘ni jamoada ishlash, boy ma‘naviy merosni qadrlash, mehnatga hurmat, o‘z milliy madaniyatiga g‘urur bilan qarash kabi jihatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar ishlab chiqilishi lozim [5].

Neolit davridagi ishlab chiqarish madaniyati, kulolchilikning paydo bo‘lishi, bronza va temir davrlaridagi metallurgiya ustaxonalarining shakllanishi ijtimoiy mehnat taqsimotini boshlab bergan. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy aloqalar, mahsulotlar almashinuvi va iqtisodiy uyg‘unlikni ta‘minlagan. Talabalar aynan shunday tarixiy tajribalar asosida o‘zlarining kasbiy qarashlari, ijtimoiy mas‘uliyat hissi va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantira oladi. Chunki xalq hunarmandchiligi asosida olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalarda nafaqat texnik va ijodiy, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantirish mumkin. Bunga madaniy merosga hurmat, milliy qadriyatlarni anglash, estetik did, ijtimoiy faoliyatga jalb etilish, mas‘uliyat va hamkorlik ko‘nikmalari kiradi. Shuning uchun xalq hunarmandchiligi texnologiya ta‘limi mazmunining ajralmas qismiga aylanishi, unga doir nazariy va metodik asoslar tizimli yo‘lga qo‘yilishi zarur [6].

Xulosa.

Xalq hunarmandchiligi – bu nafaqat moddiy madaniyat mahsuli, balki jamiyatning axloqiy, estetik va tarbiyaviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan

ijtimoiy-madaniy hodisadir. Uning asosida mehnatsevarlik, milliy o'zlikni anglash, estetik did, sabr-toqat, mas'uliyat, ijodkorlik kabi qator ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida yosh avlodda milliy qadriyatlarni anglash, ularni zamonaviy hayotga moslashtirish va ijtimoiy faol hayotga tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim muassasalarida xalq hunarmandchiligi turlarini o'rgatish orqali talaba-yoshlarda dastlabki amaliy va kasbiy ko'nikmalar bilan bir qatorda, jamiyatda o'z o'rnini topish, madaniy merosni qadrlash, tarixiy ong, milliy iftixor kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi. Ayniqsa, hunar turlarini bosqichma-bosqich, yoshga mos ravishda, nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirib o'rgatish, talabalar ongida bu jarayonlarni chuqur anglashga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik asosida olib boriladigan mashg'ulotlar orqali talabalar jamoaviy faoliyat, loyiha asosida ishlash, mehnatni qadrlash, mas'uliyatli yondashuv, etnomadaniy bilimlar, dizayn va estetik anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lishadi. Bundan tashqari, tarixiy jarayonlar, xususan neolit, bronza va temir davrlaridagi ishlab chiqarish madaniyati bilan tanishish orqali ular o'z bilim doiralarini kengaytiradi hamda qadimgi hunarlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq hunarmandchiligi talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, bir tomondan, ularni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalasa, ikkinchi tomondan, kasbiy va hayotiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Shu sababli oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida hunarmandchilikni ijtimoiy kompetensiya bilan integratsiyalash – dolzarb va istiqbolli yo'nalishdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 30.12.2021. Lex.uz.

2. Amanjonova D.A. O'zbekistonning qo'l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari. – Toshkent. 2011. – 78 b.
3. Boboyeva Y.V. Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda rekreativ texnologiyalar vositalari orqali yondashuv. Zamonaviy fan va ta'lim muammolari. 2017. – № 3. – B. 132-137.
4. Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. – Berlin: Springer, 1935.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 216 b.
6. Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish. Metodik qo'llanma. –Toshkent: Fan nashriyoti, 2001. – 102 b.
7. Дольгирева Е.В. Формирование сценарно-режиссерской техники бакалавров социально-культурной деятельности в педагогическом вузе. Монография. – Москва: Московский городской педагогический университет, 2018. – 232 с.